



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Surxondaryo viloyatida
kichik tadbirkorlik

2023-yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **20,6** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **6,8** mingtaga kamaygan yoki **24,8 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,5** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2023-yilning yanvar-dekabrida **3804** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **6,8 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2024-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi



2020-2024-yillar 1-yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2022-y.

2023-y.

2024-yil 1-yanvar holatiga faoliyat

27 368	Surxondaryo viloyati	20 589
5 148	Termiz sh	3 753
1 340	Angor	1 047
581	Bandixon	528
1 230	Boysun	903
3 193	Denov	2 467
2 239	Jarqo'rg'on	1 627
1 263	Qiziriq	904
1 808	Qumqo'rg'on	1 242
961	Oltinsoy	819
1 264	Muzrabot	916
1 368	Sariosiyo	1 169
1 884	Termiz	1 290
1 407	Uzun	1 121
1 842	Sherobod	1 472
1 840	Sho'rchi	1 331

24 395

2022-y.

yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **20 589** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3 804** tani tashkil etdi.

2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Termiz shahrida **3 753** tani yoki jamiga nisbatan **18,2 %** ni tashkil etdi.


1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

27 368

2023-y.

20 589

2024-y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*


Termiz	19,0
Termiz sh.	18,9
Boysun	10,7
Bandixon	10,4
Sherobod	10,0
Oltinsoy	9,0
Angor	8,9
Uzun	8,6
Muzrabot	8,5
Jarqo'rg'on	8,3
Qiziriq	8,3
Sho'rchi	7,8
Denov	7,9
Sariosiyo	7,9
Qumqo'rg'on	7,2

Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1-yanvar holatiga, birlikda



2024-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan **9,5** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan **3,1** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Termiz tumanida **19,0** birlik, Termiz shahrida **18,9** birlik, Boysun tumanida **10,7** birlik, Bandixon tumanida **10,4** birlik va Sherobod tumanida **10,0** birlikka yetdi.




* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Termiz tumani
- 19,0 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Angor tumani
- 8,9 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Qumqo'rg'on tumani
- 7,2 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Termiz tumanida **19,0** birlik, Termiz shahrida **18,9** birlik, Boysun tumanida **10,7** birlik, Bandixon tumanida **10,4** birlik, Sherobod tumanida **10,0** birlik, Oltinsoy tumanida **9,0** birlik, Angor tumanida **8,9** birlik, Uzun tumanida **8,6** birlik va Muzrabot tumanida **8,5** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024-yil 1-yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Sherobod tumani

10,0

Boysun tumani

10,7

Termiz tumani

18,9

Bandixon tumani

19,0

Termiz shahri

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


Yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2022-y.

2023-y.

226	Angor	189
150	Bandixon	104
225	Boysun	135
467	Denov	425
316	Jarqo‘rg‘on	293
205	Muzrabot	168
184	Oltinsoy	249
160	Qiziriq	242
270	Qumqo‘rg‘on	195
219	Sariosiyo	212
352	Sherobod	337
260	Sho‘rchi	241
189	Termiz	166
677	Termiz sh.	698
183	Uzun	150

2023-yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da




2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Termiz shahri - **18,3** %, Denov tumani - **11,2** %, Sherobod tumani - **8,9** %, Jarqo‘rg‘on tumani - **7,7** %, Qiziriq tumani - **6,4** %, Oltinsoy tumani - **6,5** % va Sho‘rchi tumani - **6,3** % hissalariga to‘g‘ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022-2023-yillarning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023-yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **1 666** ta, sanoatda **611** ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **411** ta yangidan tashkil etilgan.

Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Termiz shahrida **698** ta, Denov tumanida **425** ta va Sherobod tumanida **337** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023-yillarning yanvar-dekabr davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023-yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami **25 324** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - **8 839** (yoki **34,9 %**) ta, sanoat sohasida – **5 204** (yoki **20,6 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **5 033** (yoki **19,9 %**) ta, xizmatlar sohasida – **4 335** (yoki **17,1 %**) ta va qurilish sohasida – **1 913** (yoki **7,5 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari


Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), % da

2023-yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **75,9** % ni tashkil qilib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **0,2** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo‘shilgan qiymat hajmining ko‘payishi bilan ifodalanadi.




2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da




2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo‘lovchi tashishda **97,7** % ni, chakana savdoda **97,2** % ni, yo‘lovchi aylanmasida **95,3** % ni, yuk aylanmasida **95,3** % ni, qishloq xo‘jaligida **94,1** % ni va qurlilishda **91,3** % tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m

Termiz sh.	633,1
Sho‘rchi	544,6
Denov	386,9
Sherobod	348,6
Muzrabot	325,4
Termiz	274,6
Bandixon	269,0
Jarqo‘rg‘on	242,9
Qumqo‘rg‘on	211,9
Uzun	207,7
Sariosiyo	184,1
Oltinsoy	168,3
Angor	146,8
Boysun	137,5
Qiziriq	55,8

2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4 137,3** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (**633,1** mlrd. so‘m), Sho‘rchi (**544,6** mlrd. so‘m), Denov (**386,9** mlrd. so‘m), Sherobod (**348,6** mlrd. so‘m) va Muzrabot (**325,4** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Qiziriq tumanida (**55,8** mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so‘m

2023-yil yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 47,3 % ni tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Bandixon		100,0
Boysun		96,2
Muzrabot		90,1
Oltinsoy		86,8
Sho‘rchi		64,6
Uzun		58,9
Angor		56,7
Termiz		54,4
Termiz sh.		46,7
Sherobod		43,8
Denov		42,7
Sariosiyo		40,5
Qumqo‘rg‘on		25,1
Jarqo‘rg‘on		21,2
Qiziriq		17,7

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bandixon tumani (**100,0 %**), Boysun tumani (**96,2 %**), Muzrabot tumani (**90,1 %**), Oltinsoy tumani (**86,8 %**), Sho‘rchi tumani (**64,6 %**), Uzun tumani (**58,9 %**), Angor tumani (**56,7 %**), Termiz tumani (**54,4 %**), Termiz shahri (**46,7 %**) va Sherobod tumani (**43,8 %**) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Termiz sh.	1835,9	86,1
Denov	729,9	100,0
Boysun	473,6	100,0
Sariosiyo	465,5	61,1
Jarqo'rg'on	514,9	94,7
Termiz	423,7	100,0
Sherobod	377,0	100,0
Angor	318,3	100,0
Muzrabot	300,8	100,0
Qiziriq	254,6	99,6
Qumqo'rg'on	264,7	95,9
Sho'rchi	229,0	100,0
Oltinsoy	155,6	100,0
Uzun	213,2	100,0
Bandixon	155,1	94,8


hajmi, mld. so'mda ↑
ulushi, % da ↑

2023-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **6 711,8** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiyligi hajmining **91,3** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **105,6** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (**1 835,9** mld. so'm), Denov (**729,9** mld. so'm), Jarqo'rg'on (**514,9** mld. so'm), Sariosiyo (**465,5** mld. so'm), Termiz (**423,7** mld. so'm), Sherobod (**377,0** mld. so'm) va Qiziriq (**254,6** mld. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda



2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **10 390,8** milliard so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **57,9 %**ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2022-yilning mos davriga nisbatan **169,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Sherobod (3557,3 mlrd. so‘m), Denov (899,2 mlrd. so‘m), Termiz shahri (884,4 mlrd. so‘m), Jarqo‘rg‘on (682,5 mlrd. so‘m), Boysun (602,6 mlrd. so‘m), Angor (447,3 mlrd. so‘m), Qumqo‘rg‘on (420,3 mlrd. so‘m) va Sariosiyo (406,4 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi


Tuman	Ulushi, %	Hajmi, mlrd. so‘m
Sho‘rchi	74,2	908,7
Uzun	81,3	238,4
Bandixon	87,1	259,0
Qiziriq	88,3	276,6
Oltinsoy	83,0	341,6
Termiz	50,2	385,5
Sariosiyo	28,2	406,4
Qumqo‘rg‘on	82,6	420,3
Angor	86,7	447,3
Muzrabot	91,0	495,9
Boysun	18,0	602,6
Jarqo‘rg‘on	57,2	682,5
Termiz sh.	33,2	884,4
Denov	74,1	899,2
Sherobod	98,4	3 557,3

■ ulushi, % ■ hajmi, mlrd. so‘m

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **31 679,0** mld. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **94,1** % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2022-yilning mos davriga nisbatan **101,7** % ni tashkil qildi.

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mld. so‘mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Denov (4 905,4 mld. so‘m), Sherobod (3 720,7 mld. so‘m), Qumqo‘rg‘on (3 428,0 mld. so‘m), Jarqo‘rg‘on (3 034,0 mld. so‘m), Muzrabot (2 436,7 mld. so‘m) va Sariosiyo (2 244,9 mld. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

	Termiz sh.	90,0	82,6
Qiziriq	1017,2	71,0	
Bandixon	1019,4	99,6	
Oltinsoy	1428,2	99,4	
Angor	1441,3	70,2	
Boysun	1564,5	98,2	
Termiz	1584,3	89,6	
Uzun	1787,6	97,4	
Sho‘rchi	1976,8	99,6	
Sariosiyo	2244,9	98,0	
Muzrabot	2436,7	99,1	
Jarqo‘rg‘on	3034,0	94,6	
Qumqo‘rg‘on	3428,0	95,8	
Sherobod	3720,7	97,2	
Denov	4905,4	97,1	


↑ hajmi, mld. so‘mda
↑ ulushi, % da

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **20 208,1** mldr. so‘mni yoki umumiyl chakana savdo tovar aylanmasining **97,2 %** ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **108,7 %** ni tashkil qildi.

2023-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi


Bandixon	278,9	99,0
Termiz	385,3	97,9
Sariosiyo	793,0	99,1
Oltinsoy	837,6	99,0
Boysun	851,7	99,5
Qiziriq	878,1	99,5
Muzrabot	882,7	99,3
Qumqo‘rg‘on	889,3	99,0
Uzun	891,8	99,0
Angor	972,2	99,3
Jarqo‘rg‘on	1 081,5	97,4
Sherobod	1 233,5	97,3
Sho‘rchi	2 076,3	98,5
Termiz sh.	3 562,8	95,5
Denov	4 593,4	94,8

hajmi, mldr. so‘mda

ulushi, % da


2018-y.

2023-y.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mldr. so‘mda

Termiz sh	2 066,0
Denov	1202,6
Qo‘mko‘rg‘on	659,2
Sariosiyo	630,8
Jarqo‘rg‘on	620,8
Sherobod	617,2
Sho‘rchi	594,4
Muzrabot	535,8
Angor	498,5
Uzun	480,6
Oltinsoy	473,7
Qiziriq	466,2
Termiz	458,6
Boysun	386,7
Bandixon	288,0

2023-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **9 979,1** mldr. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **64,4 %** ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **110,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Termiz shahri (**2 066,0** mldr. so‘m), Denov (**1 202,6** mldr. so‘m), Qumko‘rg‘on (**659,5** mldr. so‘m), Sariosiyo (**630,8** mldr. so‘m), Jarqo‘rg‘on (**620,8** mldr. so‘m), Sherobod (**617,2** mldr. so‘m) va Sho‘rchi (**594,4** mldr. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan turlari
(yanvar-dekabr oylarida)**

5 181,9	Savdo xizmatlari	51,9
2 165,3	Transport xizmatlari	21,7
541,8	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	5,4
445,9	Shaxsiy xizmatlar	4,5
384,9	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	3,9
334,8	Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	3,4
283,9	Ijara xizmatlari	2,8
224,4	Boshqa xizmatlar	2,2
138,1	Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,4
124,8	Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1,2
90,1	Ta’lim sohasidagi xizmatlar	0,9
56,8	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	0,6
6,4	Moliyaviy xizmatlar	0,1

Hajmi, mlrd. so‘mda


Ulushi, foizda

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **51,9 %** (**5 181,9** mlrd. so‘m), transport xizmatlarida - **21,7 %** (**2 165,3** mlrd. so‘m), yashash va ovqatlanish xizmatlarida – **5,4 %** (**541,8** mlrd. so‘m) va shaxsiy xizmatlarda - **4,5 %** (**445,9** mlrd. so‘m) ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda - **0,1 %** (**6,4** mlrd. so‘m) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati



Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Denov	21931,6	64,8
Sherobod	15225,5	82,9
Angor	15081,8	92,4
Termiz sh.	14366,4	83,8
Qiziriq	14158,9	100,0
Sariosiyo	11959,1	100,0
Muzrabot	11812,7	100,0
Jarqo‘rg‘on	10042,2	50,9
Termiz	9666,3	48,3
Qumqo‘rg‘on	9177,7	81,4
Oltinsoy	6832,9	97,2
Uzun	6143,5	45,0
Bandixon	5989,7	100,0
Sho‘rchi	2312,0	31,1
Boysun	1425,5	20,4

hajmi, ming. AQSH dollar


ulushi, % da

2023-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **157 605,4** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **72,4** % ini tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Bandixon tumanida - **100,0** %, Sariosiyo tumanida - **100,0** %, Muzrabot tumanida - **100,0** %, Qiziriq tumanida - **100,0** %, Oltinsoy tumanida - **97,2** %, Angor tumanida - **92,4** %, Termiz shahar **83,8** %, Sherobod tumanida **82,9** %, ni tashkil qildi. Eng past ko‘rsatkich Sho‘rchi tumanida - **31,1** %, ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **94 759,7** ming AQSH dollarini yoki jami importning **88,2 %** ni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da



2023-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Qiziriq tumanida - **100,0 %**, Qumqo'rg'on tumanida - **100,0 %**, Bandixon tumanida - **100,0 %**, Muzrabot tumanida - **100,0 %**, Boysun tumanida - **100,0 %**, Uzun tumanida - **99,9 %** va Sho'rchi tumanida - **99,8 %** ni tashkil etdi.

Qiziriq	100,0
Qumqo'rg'on	100,0
Bandixon	100,0
Muzrabot	100,0
Boysun	100,0
Uzun	99,9
Sho'rchi	99,8
Denov	97,4
Oltinsoy	97,0
Termiz sh.	96,9
Angor	84,3
Termiz	78,0
Jarqo'rg'on	65,8
Sherobod	45,1
Sariosiyo	32,9

Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati

93,4 %

Yuk
tashishda

95,3 %

Yuk
aylanmasida

97,7 %

Yo'lovchi
tashishda

98,6 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2023-yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,4** % ni tashkil etdi. 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **125,7** % ni tashkil qildi.

2023-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,3** % ni tashkil etgan bo'lib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **110,6** % ni tashkil qildi.

2023-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,7** % ni tashkil etib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,1** % ni tashkil qildi.

2023-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,6** % ni tashkil etib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,4** % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yil IV chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2023-yil **IV** chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da **1053** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **358 (34,0 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **614 (58,3 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **81 (7,7 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda - **40,9 %** (**431** ta), xizmatlar sohasida - **27,5 %** (**290** ta), qurilishda - **13,6 %** (**143** ta), sanoatda - **11,5 %** (**121** ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida - **6,5 %** (**68** ta)ni tashkil etdi.

2023- yil IV chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

608,1	Termiz shahar	22,3
64,9	Angor	2,4
35,5	Bandixon	1,3
105,4	Boysun	3,8
380,3	Denov	13,9
153,5	Jarqo'rg'on	5,6
188,9	Qiziriq	6,9
74,0	Qumqo'rg'on	2,7
82,9	Oltinsoy	3,0
30,4	Muzrabot	1,1
97,7	Sariosiyo	3,6
77,9	Termiz	2,8
88,7	Uzun	3,2
109,8	Sherobod	4,0
639,6	Sho'rchi	23,4


Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Termiz shahri (**197** ta), Denov (**131** ta), Jarqo'rg'on (**74** ta), Sho'rchi (**78** ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning IV choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilning IV choragida **297** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning IV choragiga kelib esa **358** taga yetgan yoki 2018-yilning IV choragiga nisbatan **61** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilda **312** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning yanvar-dekabrida **614** ta yoki **302** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018-yilda **42** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib **81** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan **39** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



yaxshilanish

o'zgarishsiz

yomonlashish


Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilanish deb baholagan korxonalarining soni 2018-yilning **IV** choragida **374** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilning **IV** choragiiga kelib esa **510** taga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan **136** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2018-yilning **IV** choragida **207** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilning **IV** choragiiga kelib, bu ko‘rsatkich **432** ta yoki **225** taga oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2018-yilning **IV** choragida **19** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning **IV** choragiiga kelib, bu ko‘rsatkich **42** tani tashkil etib, **23** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo‘yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhitini holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilning **IV** choragida **45,6** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilga kelib esa **34,0** % ga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan **11,6** % birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2018-yilda **47,9** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilning **IV** choragida **58,3** % yoki **10,4** % birlikka oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018-yilda **6,5** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib, bu ko‘rsatkich **7,7** % ga yetgan yoki **1,2** % ga ko‘paygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillar IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilning **IV** choragida **62,3** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilga kelib esa **51,8** % ga yetgan yoki 2018-yilning **IV** choragiga nisbatan **10,5** % kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining ulushi 2018-yilning **IV** choragida **34,5** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilning **IV** choragida **43,9** % yoki **9,4** % oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2018-yilning **IV** choragida **3,2** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning **IV** choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **4,3** % yoki **1,1** % oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023-yilning **IV** choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoat sohasida – **38,0** % ni, xizmatlar sohasida – **37,2** % ni va savdoda - **34,1** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **80,9** % ni, savdoda – **58,0** % va xizmatlarda - **57,3** % ni va ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilish sohasida – **11,9** % ni, savdoda – **7,9** % ni va sanoanda – **8,3** % ni, tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2023-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – **66,9** % ni qurilishda – **62,2** % ni, xizmatlar – **61,7** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **44,1** % ni xizmatlar sohasida - **37,3** % ni, va savdoda – **36,6** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **4,9** % ni savdoda – **2,8** % ni va sanoat sohasida – **1,7** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyligi aylanmasi	41,5	44,7	13,8
Band bo'lganlar soni	32,1	58,1	9,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	42,4	48,3	9,3
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	38,5	52,1	9,4
Raqobat muhiti	49,1	42,0	8,9

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyligi aylanmasi	60,7	37,1	2,2
Band bo'lganlar soni	50,2	48,1	1,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	56,4	42,2	1,4
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	54,5	43,8	1,7
Raqobat muhiti	59,5	39,0	1,5

* Faqat raqobat muhitiga tegishli


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2023-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

2023-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Ishbilarmonalik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo‘limi